



**SHO‘RO XOKIMIYATI DAVRI TADQIQOTCHILARNING
ASARLARIDAGI XORAZMNING QADIMGI VA RIVOJLANGAN O‘RTA
ASR MUDOFAA INSHOOTLARI TO‘G‘RISIDA**

Tarix fanlari bo‘yicha

Usmanova Inobat Ibragimovna

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va Tarix fakul’teti “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrası o‘qituvchisi,

inobatusmanova540@gmail.com tel:+998904328775

“Milliy g‘oya va falsafa” kafedrası o‘qituvchisi

Djumaniyova Maryamjon Maxmudovna

Annotatsiya: Sho‘ro xokimiyati yillarida Xorazm vohasi va unga qo‘shni Sariqamishbo‘yi havzasi sarhadlaridagi qishloq va shaharlarda turli arxeologik ekspeditsiya va arxeologik guruhlar hodimlari tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar.

Kalit so‘zlar: Sariqamishbo‘yi havzasi, A. Yu. Yakubovskiy, S. A. Yershov, Darg‘on qal‘asi, Ya. G‘. G‘ulomov, Teshikqal‘a, Burgutqal‘a, Norinjanbobo, Hazorasp, Xeykanik, Burgutqal‘a va Katqal‘a, Ye. Ye. Nerazik, Yu. A. Rapoport va A. N. Gertmanlar.

**О ДРЕВНИХ И РАЗВИТЫХ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ОБОРОНИТЕЛЬНЫХ
СООРУЖЕНИЯХ ХОРАЗМА В РАБОТАХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ
ПЕРИОДА СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ**

Аннотация: В годы правления Шуры археологические исследования проводились сотрудниками различных археологических экспедиций и археологических групп в селах и городах на границах Хорезмского оазиса и прилегающей к нему Сарыкамьшбойской котловины

Ключевые слова: Бассейн Сарыкамьшбой, А.Ю. Якубовский, С.А. Ершов, Дарганский замок, Я. Г. Гуломов, Тешиккала, Бургуткала, Норинжанбобо, Хазорасп, Хейканик, Бургуткала и Каткала, Е. Есть. Неразик.





CONSTRUCTIONS OF KHORAZM IN THE WORKS OF RESEARCHERS OF THE SOVIET AUTHORITY PERIOD

Abstract: During the years of Shura rule, archaeological research was carried out by employees of various archaeological expeditions and archaeological groups in the villages and towns on the borders of the Khorezm oasis and the adjacent Sarikamishboy basin


Key words: Sarikamishboyi basin, A. Yu. Yakubovsky, S. A. Yershov, Dargan Castle, Ya. G. Gulomov, Teshikkala, Burgutkala, Norinjanbobo, Khazorasp, Heikanik, Burgutkala and Katqala, Ye. Eat. Nerazik, Yu. A. Rapoport and A. N. Hertman.

Sho'ro xokimiyati yillarida Xorazm vohasi va unga qo'shni Sariqamishbo'yi havzasi sarhadlaridagi qishloq va shaharlarda turli arxeologik ekspeditsiya va arxeologik guruhlar hodimlari tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalarini aks ettirgan monografiya, risola, maqola va tezislardagi ma'lumotlar namoyon qiladi. XX asrning 20 - yillar oxiridan Xorazm vohasida o'rta asrga mansub shahar tipidagi aholi punktlarini arxeologik jihatidan o'rganish ishlari boshlanganini eslash lozim. A. Yu. Yakubovskiy Ko'hna Urganch, Mizdahqon yodgorliklarida arxeologik izlanishlarni olib borishi natijasida olingan ashyolar Buyuk Xorazmshohlar davrida kechgan tarixiy jarayonni yoritishda muhim o'rin tutgan.¹ Afsuski, yodgorlik qadimiy madaniy qatlamigacha arxeologik izlanishlar olib borilmaganligi sababli, uning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixi hanuzgacha ilmiy jihatidan o'z isbotini topgan emas. S. A. Yershov esa, Darg'on qal'asi yuqori madaniy qatlamida arxeologik qazishmalarni olib borishi natijasida o'rta asr jamiyatini yoritadigan materiallarni olishga muvaffaq bo'lgan.² Xolbuki, Darg'on mudofaa kompleksini o'rganish masalasi e'tibordan qolib ketgan.

Ikkinchi tarixiy davrda XX asrning 30 yillari o'rtalaridan Xorazm vohasida kadimgi va rivojlangan urta asr davrlarda kechgan tarixiy dialektika taraqqiyotini o'rganishda yangi davr boshlangan. Yangi davrning boshlanishi birinchi o'zbek arxeologi, akademik Ya. G'ulomov faoliyati bilan bog'liq. 1936-yilda olim tomonidan Hazorasp, Xiva shaharlari tarixiga oid dastlabki fikr-mulohazalari diqqatga

¹ Якубовский. А. Ю. Развалины Ургенча. Л, 1930.

² Ершов. С. А. Археологические памятники левого берега Амударьи//ВДИ. № 1//. М, "Наука", 1941






sazovar. A. I. Terenojkin 1937-yildan Burgutqal'a, Katqal'a madaniy-xo'jalik markazlarida arxeologik qidiruv ishlari jarayonida 22 ta qadimgi va ilk o'rta asrlarga mansub yodgorliklarni ro'yhatga olish bilan bir vaqtda, Teshiqal'a, Burgutqal'a, Norinjanbobo yodgorliklarida qisman qazish ishlarini olib borishga muvassar bo'lgan³. Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid tarixiy obidalar Xorazm arxeologik xartiasiga qayd qilingan, Xazorasp, Xeykanik, Burgutqal'a va Katqal'a markaziy-xo'jalik markazlari tarixiga doir dastlabki ilmiy asosga ega bo'lgan tarixiy ma'lumotlar ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.

1930-yillar o'rtalaridan e'tiboran S. P. Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan Xorazm vohasi, Sariqamishbo'yi sarhadlarida turli tarixiy sanalarda aholi tomonidan barpo qilingan qishloq va shaharlarni qidirib topish, ularni ro'yhatga olish, ularda asrlar davomida saqlanib kelgan sir-sinoatlarni maqsadli ravishda ilmiy jihatidan o'rganish ishlarini boshlab yubordilar. 1937-1940-yillar mobaynida ekspeditsiya xodimlari jasorati tufayli vohaning arxaika, antik va ilk o'rta asr jamiyatlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni yoritadigan noyob ashyolarni olishga muvassar bo'ldilar. Sobiq sovet davrida Xorazm vohasi va uning tabiiy davomi bo'lgan Sariqamishbo'yi sarhadlarida yostanib saqlanib qolgan qadimgi va ilk o'rta asrlar qishloq va shaharlar tarixiga oid arxeologik materiallar serob bo'lib, ularning nazariy-qiyosiy tahlili eski jamiyat mafkurasi asosida olib borilganligi kuzatiladi. Xorazm vohasi qadimgi va ilk o'rta asrlar davri yodgorliklaridan olingan arxeologik ashyolar o'zbek davlatchiligi ilk bosqichi, uning shakllanish jarayoni va rivojlanish tarixini o'rganishda muhim nazariy manba bo'lib hisoblanadi. O'lkamiz sarhadida ilk davlatchilikning vujudga kelishi va uning mahalliy ildizi, o'ziga xos xususiyatlari, ahamoniylar zulmidan ozod bo'lgan Xorazm davlatining turli tarixiy davr jarayonida rivojlanish bosqichlari, davlat boshqaruv tizimi, shaharsozlik madaniyati, uning rivojlanishiga imkon bergan mudofaa inshootlari kabi masalalari yaxlit tarzda obyektivlik, xolislik va mantiqiy tamoyillar asosida maxsus obyekt sifatida o'rganilmaganligi kuzatiladi. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan yarim asrdan ko'proq maboynda Xorazmning qishloq va shaharlari tarixiga oid

³ Тереножкин. А. И. Археологические разведки в Хорезме.//СА. №V1//. 1940, с. 176-177.





to'plangan ashyolar tahliliga bog'ishlangan tarixiy asarlardagi ma'lumotlar inkor qilinmaydi, ammo olingan arxeologik ashyolar qaysi tarixiy davr, qaysi mafkura metodologik uslubida ilmiy tahlil qilinganini nazarga olish joiz. Akademik Ya. G'. G'ulomov yozma manbalardagi ma'lumotlarni arxeologik ashyolar va etnografik materiallar asosida Xorazmning arxaik davrida vujudga kelgan shaharsozlik madaniyati va uning keyingi tarixiy davrlarda rivojlanishiga manba bo'lgan sug'orish inshootlari faoliyatining tarixiy ahamiyatini aks ettirgan tarixiy ma'lumotlari tadqiqotchilar uchun ilmiy ahamiyati saqlanib kelmoqda.⁴

A. S. Kes, S.P.Tolstov, B. A. Andrianov asarlarida qadimgi Xorazm vohasida tabiiy-geografik sharoit va antropogen landshaftning shakllanishi, Amudaryo, Sirdaryo irmoqlari faoliyati, magistral kanallar qurilishi tarixiga oid ma'lumotlarni qayd qilganlar. A. S. Kes tadqiqotlarida Quyi Amudaryo, Sariqamishbo'yi havzalari pasttekisliklari geologik va paleogeografik tuzilishi ma'lum ma'noda o'z mazmunini topgan.⁵ B. A. Andrianov asarlarida esa, yuqorida qayd qilingan sarhadlarda magistral inshootlar qurilishi, shu asosda dehqonchilik dala tizimi vujudga kelishi va rivojlanish tarixi keng tarzda yoritilgan.⁶ Xorazm vohasida qadimgi tosh davriga oid manzilgohlar Ye. B. Bijanov,⁷ A. V. Vinogradov tadqiqotlarida neolit, eneolit davri urug' jamoalari tabiiy ravishda vujudga kelgan ko'l, buloq atroflari va suv havzalari sohili yoqalarida yarim yerto'la tipidagi chaylalarda olib borgan turmush tarzi tarixiga oid ma'lumotlar o'rin olgan.⁸ Tadqiqotchi M. A. Itina Oqchadaryo havzasida eneolit va bronza davriga mansub obidalarda keng miqyosda olib borgan arxeologik izlanishlar natijasida qadimgi Xorazmda ilk urbanistik jarayon arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni yoritadigan ashyolarni olishga miyassar bo'lgan.⁹

S. P. Tolstov ilk maqolasida Ko'zaliqir qal'asi joylashishi, topografik tuzilishi va

⁴Гуломов. Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т, «Фан», 1959.


⁵Кесь. А.С. Причины изменения уровня Арала в голоцене. //Известия Ан СССР, серия географических наук//. М. 1978 №1, с. 8-16. Он же. Аральское море в голоцене//Этнография и археология Средней Азии//. М. «Наука», 1979, с. 19-23. Он же. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударья//Культура и искусство древнего Хорезма//. М., «Наука», 1981, с. 72-80.

⁶Андрианов. Б. В. Древние оросительные системы Приаралья. М., «Наука», 1969.

⁷Бижанов. Е. Б. Археологические памятники юго-восточного Устюрта. Нукус 1967; Его же мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устюрта//Археология Приаралья//. Вып-1, Ташкент. 1982.

⁸Винаградов. А.В. Древние охотники и рыбаковы Среднеазиатского междуречья. М, «Наука», 1981. Винаградов. А.В., Мамедов. Э. Д. Первобытный Лавлякан. М, «Наука», 1975.

⁹Итина М.А. История степных племен южного Приаралья. М. 1977.





mudofaa tizimi tarixini tahlil qilib, uni arxaika davriga mansubligi to'g'risida xulosasi qayd qilingan.¹⁰ Ekspeditsiya xodimi O.A. Vishnevskaya Ko'zaliqirda arxeologik qazish ishlarini olib borishi natijasida, uning tarhi tuzilishi, mudofaa tizimi tarixiga oid yangi ma'lumotlar tahlili asosida, uni Xorazmning dastlabki siyosiy markazi degan xulosaga kelgan.¹¹ Qo'yqirilganqal'ada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan arxeologik ashyolar Xorazm vohasini ilk va so'nggi antik dunyosi jamiyatida kechgan tarixiy jarayonni o'rganishda muhim manba bo'lib hizmat qiladi.¹² Tadqiqotchilar Ye. Ye. Nerazik, Yu. A. Rapoport va A. N. Gertmanlar tomonidan Tuproqqal'ada (Ellikqal'a tumani) olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar (150ga yaqin devoriy tasvirlar va alebstrli haykallar bilan bezatilgan "taxt zali", "shohlar zali", "G'alaba zali", "harbiylar zali", "raqqosalar zali" va 120ga yaqin arxiv xujjatlari) Xorazmning so'nggi antik davri jamiyatini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va diniy-mafkuraviy munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.¹³

Tadqiqotchi M. G. Vorobyeva Burgutqal'a vohasida qishloq tipidagi Ding'iljida arxeologik izlanishlarni olib borishi jarayonida miloddan avvalgi V asrga oid noyob ashyolarni olishga muvassar bo'lgan.¹⁴ Yodgorlik uy-xonalaridan olingan ashyolar arxaika davri oxiridan qishloqlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayoni jadal sur'atda kechishi boshlanganligini izohlaydi. Lekin, jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ravnoqi maskan mukammal mudofaa tizimida o'z aksini topmaydi. Ye. Ye. Nerazik Oqchadaryo havzasi sarhadida motiga-dehqonchilik xo'jaligi bilan shug'ullangan qabilalar madaniyatini Yakkaparsan-2 maskani misolida o'rgandi. Tadqiqotchi Oqchadaryo havzasida Afrig'iylar davriga mansub bo'lgan qishloq jamoalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini


¹⁰Толстов С.П. «Городище с жилыми стенами»//КСИИМК, Вып XVII//. М 1947 с 3-8.

¹¹Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзелигыр//АО 1971//. М, "Наука", 1972. Её же. Раскопки на городище Кюзелигыр//АО 1977//. М, "Наука", 1978; Её же. Раскопки на городище Кюзели-Гыр//АО 1982//. М, "Наука", 1983.Ее. Же. Вишневская. О. А. Рапопорт. Ю. А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем эпохе истории Хорезма//ВДИ, №2//. М, "Наука", 1997, с. 150-173.

¹²Кой-крылган-кала- Памятник культуры в IV в. до н. э. IV в.н.э в древнем Хорезме. М., «Наука», 1967.

¹³ Неразик. Е. Е. Раскопки городища Топракальа//КСИА, 132,//. М, "Наука", 1972, с. 23-30, Её. же. Раскопки городище Топракальа//АО-1974//. М, «Наука», 1975, с. 508-509. Рапопорт. Ю. А., Гертман. А. Н. Работы на Топракалье.//АО-1976//. М, «Наука», 1977, с. 539-540. Городище Топракальа. М, Наука», 1981. Топракальа. Даорец. М, «Наука», 1984.

¹⁴Воробьева. М. Г. Дингильже. Усадьба I тыс. до. н. э. в древнем Хорезме//МХЭ, Вып 9//. М, "Наука", 1973.






o'rganishni asosiy obyekt qilib olganligi diqqatga sazovar.¹⁵

M. G. Vorobyeva, M. S. Lapirova-Skoblo, Ye. Ye. Neraziklar Hazorasp shahar ichki qismi va mudofaa devoridaolib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, shaharning vujudga kelish tarixiy sanasini mil. avv. IV asrga oidligi to'g'risida xulosaga kelganlar. B. I. Vaynberg Sariqamishbo'yi havzasida joylashgan Quisoy manzilida keng qamrovli arxeologik izlanishlarni olib borishi natijasida olingan temirdan qilingan xilma-xil mehnat qurollari, kulolchilik ashyolari, bronza va temirdan qilingan qurol-aslahalar, ikki va uch qirrali kamon o'qlari, loy va toshdan yasalgan shar yadrolar va olamdan o'tgan safdoshlar suyaklari qo'yilgan loydan ishlangan silindr shakldagi ossuariy qoldiqlarini o'rganish asosida maskanni Yakkaparonliklar bilan tengdosh degan xulosaga kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Якубовский. А. Ю. Развалины Ургенча. Л, 1930.
2. Ершов. С. А. Археологические памятники левого берега Амударьи//ВДИ. № 1//. М, "Наука", 1941
3. Тереножкин. А. И. Археологические разведки в Хорезме.//СА. №VI//. 1940, с. 176-177.
4. Гуломов. Я. Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т, «Фан», 1959.
5. Кесь. А.С. Причины изменения уровня Арала в голоцене. //Известия АН СССР, серия географических наук//. М. 1978 №1, с. 8-16. Он. же. Аральское море в голоцене//Этнография и археология Средней Азии//. М. «Наука». 1979, с. 19-23. Он. же. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи//Культура и искусство древнего Хорезма//. М., «Наука», 1981, с. 72-80.
6. Андрианов. Б. В. Древние оросительные системы Приаралья. М., «Наука», 1969.
7. Бижанов. Е. Б. Археологические памятники юго-восточного Устюрта. Нукус 1967; Его. же мезолитические и неолитические памятники северо-западного Устюрта//Археология Приаралья//. Вып-1, Ташкент. 1982.

¹⁵Неразик. Е. Е. Раскопки Якка-Парсан-2 в 1958-1961гг//МХЭ. Вып. 2//. М, "Наука", 1963. Её. же. Усадьба в Якка-Парсонском оазисе//Приаралье в древности и средневековья//. М, "Наука", 1998, с. 172-186. Её. же. Сельские поселения афригидского Хорезма. М."Наука", 1966. Её. же. Сельское селище Хорезма. М, «Наука», 1967.





8. Винаградов. А.В. Древние охотники и рыбаловы Среднеазиатского междуречья. М, "Наука", 1981. Винаградов. А.В., Мамедов. Э. Д. Первобытный Лавлякан. М, "Наука", 1975.

9. Итина М.А. История степных племен южного Приаралья. М. 1977.

10. Толстов С.П. «Городище с жилыми стенами»//КСИИМК, Вып XVII//. М 1947 с 3-8.

11. Вишневская О.А. Раскопки на городище Кюзелигыр//АО 1971//. М, "Наука", 1972. Её же. Раскопки на городище Кюзелигыр//АО 1977//. М, "Наука", 1978; Её же. Раскопки на городище Кюзели-Гыр//АО 1982//. М, "Наука", 1983. Её же. Вишневская. О. А. Рапопорт. Ю. А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о ранней эпохе истории Хорезма//ВДИ, №2//. М, "Наука", 1997, с. 150-173.

12. Кой-крылган-кала- Памятник культуры в IV в. до н. э. IV в. н.э в древнем Хорезме. М., «Наука», 1967.

13. Неразик. Е. Е. Раскопки городища Топракальа//КСИА, 132, // М, "Наука", 1972, с. 23-30, Её же. Раскопки городища Топракальа//АО-1974//. М, «Наука», 1975, с. 508-509. Рапопорт. Ю. А., Гертман. А. Н. Работы на Топракальа.//АО-1976//. М, «Наука», 1977, с. 539-540. Городище Топракальа. М, Наука», 1981. Топракальа. Даорец. М, «Наука», 1984.

14. Воробьева. М. Г. Дингильже. Усадьба I тыс. до. н. э. в древнем Хорезме//МХЭ, Вып 9//. М, "Наука", 1973.

15. Неразик. Е. Е. Раскопки Якка-Парсан-2 в 1958-1961 гг//МХЭ. Вып. 2//. М, "Наука", 1963. Её же. Усадьба в Якка-Парсонском оазисе//Приаралье в древности и средневековья//. М, "Наука", 1998, с. 172-186. Её же. Сельские поселения афригидского Хорезма. М."Наука", 1966. Её же. Сельское селище Хорезма. М, «Наука», 1967.

